



## TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I

2023 - yil 12 - iyun

173-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

### **Toshkent shahar hokimining 2023-yil 3-iyundagi 345-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 24-maydagi PQ-162-son qarori hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 3-iyundagi 345-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

#### **QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent shahar hokimining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-son qarori ijrosi haqida"gi 2023-yil 3-iyundagi 345-14-0-Q/23-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qaroriga muvofiq:

"Raqamli hukumat" va "Raqamli hudud" dasturlari doirasida 2023-2024-yillarda amalga oshiriladigan ustuvor loyihalar ro'yxati;

davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo'yicha ustuvor loyihalar ro'yxati;

iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini raqamlashtirish bo'yicha ustuvor loyihalar ro'yxati;

hududlarni raqamli transformatsiya qilish bo'yicha ustuvor loyihalar ro'yxati tasdiqlanganligi;

2023-yil 1-iyundan boshlab tashqi kredit va beg'araz ko'mak mablag'lari asosida amalga oshiriladigan loyihalarning raqamli komponentlarga yo'naltiriladigan qismi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan majburiy tarzda kelishilishi belgilanganligi

ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Toshkent shahar hokimining ushbu qarori bilan:

hududlarni raqamlashtirish bo'yicha loyihalarni joriy etish hamda ularni texnik qo'llab-quvvatlash uchun "Raqamli rivojlanish departamenti" mas'uliyati cheklangan jamiyati mas'ul va javobgar hisoblanishi belgilanganligi;

hududlarni raqamlashtirish bo'yicha loyihalarni joriy etish hamda texnik qo'llab-quvvatlash uchun "Raqamli rivojlanish departamenti" mas'uliyati cheklangan jamiyati huzurida loyiha ofislari tashkil etilishi;

"Raqamli rivojlanish departamenti" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2023-yillarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son qarorining 18-bandi uchinchi xatboshisi talablari tatbiq etilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarorining 4-bandida nazarda tutilgan platforma va axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzish huquqi berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-2024 yillarda Yangihayot tumanini raqamli transformatsiya qilish bo'yicha ustuvor loyihalar ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Hamda ustuvor loyihalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ta'minlansin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari X.Tashpulatov zimmasiga yuklansin.

**Yangihayot tumani hokimi**



**X.Inogamov**

Yangihayot tuman hokimining  
2023-yil 12-iyundagi  
173-14-220-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

## 2023-2024-yillarda Yangihayot tumanida raqamli transformatsiya qilish bo'yicha ustuvor loyihalar ro'yxati

### “YO‘L XARITASI”

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Moliyalashtirish manbai	Mas'ul ijrochi
	<p>Axborot texnologiyalari sohasini yanada rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart- sharoitlardan foydalangan holda IT-park rezidentlar sonini oshirish va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish.</p> <p>Bunda, IT-park rezidentlari 1000 nafarga, ular tomonidan yaratilgan ish o'rinlari 5000 taga;</p> <p>Eksport qilingan xizmatlar hajmini 262 mln dollarga;</p> <p>Ko'rsatilgan IT-xizmatlar hajmini 2 trln. so'mga yetkazish choralari ko'rish.</p>	<p><a href="http://www.it-market.uz">www.it-market.uz</a> portalida IT-park rezidentlari tomonidan yaratilgan yangi ish o'rinlar to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda yangilab borish.</p> <p>1. IT-park rezidentlari ishtirokida “job fair” mehnat yarmarkasini tashkil etish.</p> <p>2. Mahalliy bozorga ixtisoslashtirilgan IT-park rezidentlarini eksportga yo'naltirish.</p> <p>IT-park rezidentlariga yaratilgan sharoitlarni keng targ'ibot qilish.</p>	2023-yil dekabr	-	IT-park direksiyasi (F.Ibragimov), Tuman hokimligi axborot texnologiyalari bo'yicha bosh mutaxassisi (O.Kulmamatov)